

**INSON HUQUQLARI BO‘YICHA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MILLIY MARKAZI HUZURIDAGI ILMIIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc. 39/30.11.2020. Yu/S. 128.01 RAQAMLI ILMIIY KENGASH**

---

**INSON HUQUQLARI BO‘YICHA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MILLIY MARKAZI**

**SHAYAKHMETOVA AIYM GALIMBEKOVNA**

**QOZOG‘ISTON RESPUBLIKASI VA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA  
MA‘MURIY ADLIYA SOHASIDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA  
QILISH: QIYOSIY TAHLIL**

12.00.13 – Inson huquqlari

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Shayakhmetova Aiym Galimbekovna**

Qozog‘iston Respublikasi va O‘zbekiston Respublikasida ma‘muriy  
adliya sohasida inson huquqlarini himoya qilish: qiyosiy tahlil .....3

**Шаяхметова Айым Галымбековна**

Защита прав человека в сфере административной юстиции в Республике  
Казахстан и Республике Узбекистан: сравнительный анализ .....23

**Shayakhmetova Aiym Galimbekovna**

Protection of human rights in the field of administrative justice in the Republic  
of Kazakhstan and the Republic of Uzbekistan: a comparative analysis .....45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

List of published works

Список опубликованных работ.....50

**INSON HUQUQLARI BO‘YICHA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MILLIY MARKAZI HUZURIDAGI ILMIIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc. 39/30.11.2020. Yu/S. 128.01 RAQAMLI ILMIIY KENGASH**

---

**INSON HUQUQLARI BO‘YICHA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MILLIY MARKAZI**

**SHAYAKHMETOVA AIYM GALIMBEKOVNA**

**QOZOG‘ISTON RESPUBLIKASI VA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA  
MA‘MURIY ADLIYA SOHASIDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA  
QILISH: QIYOSIY TAHLIL**

12.00.13 – Inson huquqlari

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Yu1004 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.nhrc.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Tillabayev Mirzatillo Alisherovich</b> yuridik fanlar doktori, professor
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Yuldasheva Govxerjan</b> yuridik fanlar doktori, professor <b>Duysenov Erkin Ermanovich</b> yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston Respublikasi)
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish Akademiyasi</b>

Dissertatsiya himoyasi Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.39/30.11.2020. Yu/S. 128.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "22" iyun kuni soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100029, Toshkent shahar, Islom Karimov ko'chasi, 15-uy. Tel.: (99871) 239-40-23; E-mail: info@nhrc.uz).

Dissertatsiya bilan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (9-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100029, Toshkent shahar, Islom Karimov ko'chasi, 15-uy. Tel.: (99871) 239-40-23).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "13" iyun kuni tarqatildi.  
(2025-yil "13" iyun, 9 raqamli reyestr bayonnomasi).



**I.T. Turg'unov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, yuridik fanlar doktori, dotsent

**O.S. Ochilov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
a'zosi, yuridik fanlar doktori,  
dotsent

**A.A. Tulaganov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, yuridik fanlar doktori, professor

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda qonun ustuvorligiga bo'lgan hurmatning global pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda, bu korrupsiyaning o'sishi, xalqaro va milliy huquq normalariga e'tiborsizlik, jinoyatchilik ko'lami va inson huquqlariga tajovuzlar bilan yanada kuchaymoqda. Jadal rivojlanish va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning murakkablashuvi sharoitida ko'pgina mamlakatlarda sud organlariga yuklama sezilarli darajada ortmoqda, natijada fuqarolar tom ma'nodagi odil sudlovdan foydalanish imkoniyatidan mahrum bo'lmoqdalar. Xalqaro tashkilotlarning baholashiga ko'ra, taxminan 1,5 milliard kishi sud tartibida buzilgan huquqlarini tiklay olmaydi<sup>1</sup>. Odil sudlov sohasidagi standartlar va normalarni amalga oshirish 2030-yilgacha bo'lgan davrda Barqaror rivojlanish kun tartibi<sup>2</sup> maqsadlariga erishishda muhim rol o'ynaydi, xususan, 16-maqsadga muvofiq a'zo davlatlar tinch va ochiq jamiyatlar barpo etishga ko'maklashish, hamma uchun adolatga erishishni ta'minlash hamda barcha darajalarda samarali, hisobdor va keng ishtirokka asoslangan institutlarni yaratish majburiyatini olganlar.

Globalashuv va qonunchilikni modernizatsiyalash sharoitida fuqaro va davlat o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish, shuningdek, inson huquqlarini kafolatlash va davlat boshqaruvi samaradorligini, xususan, ma'muriy adliya institutini ta'minlashga imkon beruvchi optimal huquqiy mexanizmni izlashga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar sezilarli rivojlanmoqda. Shu munosabat bilan BMT davlatlarga davlat xizmatlarini ko'rsatish tartib-taomillaridagi har qanday kamchiliklarni, jumladan, sog'liqni saqlash, ta'lim va adliya kabi sohalarda bartaraf etishni hamda ularning yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida qulayligini oshirishni tavsiya etadi<sup>3</sup>.

Jahon tajribasi ma'muriy adliya institutini o'ziga xos milliy huquqiy tizimlarga moslashtirish va joriy etish imkoniyatlari borligini ijobiy dalillar bilan tasdiqlaydi hamda ushbu institut o'zgarishlarga yuqori darajada moslasha olish qobiliyatiga ega ekanini isbotlagan. Zamonaviy sharoitlar ma'muriy adliya institutining nazariy, amaliy va huquqiy muammolarini kompleks o'rganishni, huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlarida huquqiy davlat instituti sifatida ma'muriy adliyaning shakllanishi va rivojlanishi muammolarini tadqiq qilish nihoyatda dolzarb vazifadir. Markaziy Osiyo davlatlari, xususan, Qozog'iston va O'zbekistonning siyosiy, iqtisodiy va huquqiy suverenitetni qo'lga kiritishi, yangi konstitutsiyalarning qabul qilinishi sud-huquq tizimlarini isloh qilish va ma'muriy adliyani shakllantirish jarayonini tezlashtirdi. Statistika ma'muriy adliyaning dinamik rivojlanishidan dalolat beradi, xususan: Qozog'istonda 2023-yilda birinchi instansiya sudlariga 31123 ta da'vo arizasi kelib tushgan (2022-yilda – 28852 ta)<sup>4</sup>, O'zbekistonda 2017 – 2024

<sup>1</sup> Qarang: World Justice Project. Measuring the Justice Gap. // <https://worldjusticeproject.org/our-work/research-and-data/access-justice/measuring-justice-gap>.

<sup>2</sup> Resolution adopted by the General Assembly on 25 September 2015, 70/1. "Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development" // <http://undocs.org/A/RES/70/1>

<sup>3</sup> Resolution adopted by the Human Rights Council on 9 October 2024, 57/5. "The role of good governance in the promotion and protection of human rights" // <https://docs.un.org/en/A/HRC/RES/57/5>

<sup>4</sup> Qarang: Отчет о деятельности Республики Казахстан по обеспечению верховенства закона /Министерство юстиции Республики Казахстан. – Астана, 2024. – С. 69. // <https://www.gov.kz/memleket/entities/adilet/documents/details/680942?lang=ru>

yillar davomida ma'muriy sudlar tomonidan 120 mingga yaqin ariza ko'rib chiqilgan, ularning 57 foizi qanoatlantirilgan, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining buzilgan huquqlari tiklangan<sup>1</sup>.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti ma'lum darajada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023), Qozog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi (2022), Qozog'iston Respublikasi Ma'muriy tartib-taomillar kodeksi (2021), O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi (2018), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-iyuldagi "Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2023-yil 16-yanvardagi "Odil sudlov faoliyatini amalga oshirishni samarali tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi va 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi "Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini sud orqali himoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda bayon etilgan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. "Axborot jamiyati va demokratik davlatning ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy va ta'lim rivojlanishida innovatsion g'oyalar va ularni amalga oshirish usullari tizimini shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Inson huquqlarini ma'muriy adliya instituti orqali himoya qilish muammolari Yevropa yuridik fanida (Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Ispaniya va boshqalar) eng ko'p ishlab chiqilgan. Ma'muriy adliya instituti sohasida inson huquqlarini himoya qilishni o'rganishga chet ellik turli yuridik fan sohalari mutaxassislarining asarlari bag'ishlangan, jumladan: T.Y. Xabriyeva, A.X. Abashidze, E.M. Ametistov, V.V. Boysova, G.V. Ignatenko, A.I. Kovler, A.G. Kucherena, V.I. Lafitskiy, N.G. Salisheva, Y.N. Starilov, V.A. Tumanov, A.N. Talalayev, Y.A. Tixomirov, O.I. Tiunov, N.Y. Xamaneva, V.E. Chirkin, D.M. Chechot, A.B. Zelentcov, shuningdek, J. Bader, H. Erichsen, D. Ehlers, W. Heyde, F. Hufen, R. Messerschmidt, K. Redeker, I. Richter, G.F. Schuppert, R. Schmidt, G. Scholz va boshqalar.

Qozog'istonlik olimlarning – I.I. Aubakirova, E.E. Duseynov, R.K. Sarpekov, M.I. Jumagulov, B.A. Jetpisbayev, K.A. Mami, N.I. Mamontov, R.A. Podoprighora, Z.X. Baymoldina, A.B. Gabbasov va boshqalarning asarlarida ma'muriy adliyani huquqiy tartibga solish muammolari o'rganilgan.

Inson huquqlarini ma'muriy adliya orqali himoya qilishni tadqiq qilishda O'zbekistonlik inson huquqlari sohasidagi olimlar – A.X. Saidov, F.X. Bakayeva, A.B. G'afurov, M.M. Mamasiddiqov, A.R. Muminov, M.A. Tillabayev, A.A. To'laganov, M.T. Turg'unov, I.T. Turg'unov, G.Y. Yuldasheva, B.I. Ismailov, hamda ma'muriy huquq sohasidagi olimlar – I.A. Xamedov, X.R. Alimov,

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi "Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini sud orqali himoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-33-son qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.01.2025-y., 07/25/33/0091-son

G.R. Malikova, Y.D. Kutibayeva, L.B. Xvan, J.N. Nematov, F.M. Fayziyev, I.M. Say<sup>1</sup> va boshqalarning tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega.

Markaziy Osiyo davlatlarida ma'muriy adliya muammolarini tadqiq qilishga bag'ishlangan S. Ibragimovning ilmiy ishini qayd etish lozim<sup>2</sup>. Sh. Shayzakovning dissertatsiyasida O'zbekistonda ma'muriy sud ishlarini yuritishda prokurorning ishtiroki muammolari o'rganilgan<sup>3</sup>.

**Dissertatsiya tadqiqotining oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlar rejaları bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazining ilmiy-tadqiqot ishlar rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Qozog'iston va O'zbekiston qonunchiligida ma'muriy adliya orqali fuqarolarning huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq normalarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

siyosiy-huquqiy qarashlar tarixida inson huquqlari konsepsiyasini, inson huquqlarining evolyutsion rivojlanishi va konstitutsiyaviy mustahkamlanishini o'rganish;

inson huquqlarini himoya qilishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari va usullarini, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish vositasi sifatida ma'muriy adliya institutining nazariy asoslarini tahlil qilish;

Qozog'istonda ma'muriy adliya orqali inson huquqlarini himoya qilishning shakllanish tarixi va huquqiy asoslarini o'rganish, ma'muriy adliya institutining faoliyatini tahlil qilish;

O'zbekistonda ma'muriy adliya institutining shakllanishi va rivojlanishini, shuningdek, uning faoliyatini kompleks tahlil qilish;

Qozog'iston Respublikasi va O'zbekiston Respublikasida ma'muriy adliya orqali inson huquqlarini himoya qilishning qiyosiy-huquqiy tahlilini o'tkazish;

O'zbekiston va Qozog'istonda ma'muriy adliya sohasida inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

**Tadqiqot obyekti** huquqiy davlat shakllanishining umumiy qonuniyatlari va milliy xususiyatlari bilan shartlangan ma'muriy adliya orqali inson va fuqarolarning huquqlarini himoya qilish sohasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlardir.

**Tadqiqot predmeti** ma'muriy adliya institutining faoliyati sohasidagi xalqaro-huquqiy hujjatlar, milliy va xorijiy qonunchilik, konseptual yondashuvlar va ilmiy-nazariy qarashlardir.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqotda ilmiy bilishning tarixiy, mantiqiy-huquqiy, formal, qiyosiy-huquqiy, tizimli tahlil, statistik usullari, shuningdek, ma'muriy ishlar materiallarini o'rganish va boshqa usullar qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

jismoniy va yuridik shaxslarning ommaviy huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini to'liqroq amalga oshirish, ommaviy-huquqiy munosabatlarda xususiy

---

<sup>1</sup> Mazkur va boshqa olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiyaning adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

<sup>2</sup> *Qarang:* Ибрагимов С.И. Административная юстиция в Центрально-Азиатских государствах: проблемы становления и развития. /Автореферат дисс. на соискании учёной степени д.ю.н. – М., 2013. – 50 с.

<sup>3</sup> *Qarang:* Шайзаков Ш.И. Маъмурий суд ишларини юритишда прокурор иштирокининг ташкилий-ҳуқуқий асослари: қиёсий-ҳуқуқий таҳлил. /Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Т., 2021. – 50 б.

va ommaviy manfaatlar muvozanatiga erishish, samarali va shaffof davlat boshqaruvini ta'minlash, shu jumladan, shaxslarning ommaviy-huquqiy sohadagi boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ishtirok etishi, ma'muriy tartib-taomillar vazifalarini amalga oshirishga taalluqli masalalarni hal qilish uchun Qozog'iston Respublikasi qonunchiligiga o'zgartishlar kiritish zarurati asoslab berilgan;

jismoniy shaxslarning buzilgan yoki nizoli huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, yuridik shaxslarning ommaviy-huquqiy munosabatlardagi huquqlari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilish hamda tiklash maqsadida ma'muriy ishlarni adolatli, xolis va o'z vaqtida hal etish, Qozog'istonda ma'muriy sud ishlarini yuritishning asosiy vazifalarini amalga oshirish uchun yangi huquqiy normalarni kiritish zarurati asoslab berilgan;

davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatayotgan advokat jalb qilinganda, uning ishga kirishishi uchun advokat ishtiroki tasdiqlangan paytdan boshlab kamida to'rt soat vaqt berilishi tartibini O'zbekiston qonunchiligiga joriy etish asoslab berilgan;

sud ma'muriy ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga ega bo'lgan barcha haqiqiy holatlarni har tomonlama, to'liq va xolisona tekshirishi, qonunchilikda "sudning faol roli"ni mustahkamlash zarurati asoslab berilgan;

qiyosiy tadqiqot asosida dastlabki eshituv institutini joriy etish, shuningdek, ma'muriy sud ishlarini yuritishga da'vo turlari, ularni ko'rib chiqish tartibi va muddatlarini belgilagan holda ma'muriy da'volarni kiritish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;

xalqaro standartlar va xorijiy tajriba asosida fuqaroning arizasi bo'yicha sudning eksterritorial yurisdiksiyasi mexanizmini joriy etish ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari.** Ijobiy xorijiy tajriba, shuningdek, Qozog'iston va O'zbekistonda ma'muriy adliyaning faoliyatini qiyosiy-huquqiy tahlil qilish asosida huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish va yaxshilashga qaratilgan taklif va tavsiyalar ilgari surildi:

Qozog'iston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksidagi ommaviy-huquqiy nizolarni Qozog'iston Respublikasi Ma'muriy tartib-taomillar kodeksi doirasiga o'tkazish bo'yicha takliflar qabul qilindi;

Qozog'iston Respublikasi Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi kodeksidagi ma'muriy huquqbuzarliklarni ommaviy-huquqiy xarakterga ega bo'lgan ma'muriy nizolar doirasiga o'tkazish bo'yicha takliflar shakllantirildi;

ma'muriy nizolarni sudgacha hal qilish samaradorligini oshirish, shuningdek, Qozog'iston va O'zbekiston davlat organlari faoliyati ustidan ma'muriy nazoratni kuchaytirish bo'yicha takliflar shakllantirildi;

Qozog'iston va O'zbekistonda dastlabki eshituv, sudning eksterritorial yurisdiksiyasi, shuningdek, huquqni qo'llash amaliyotini joriy etishga qaratilgan ma'muriy adliya institutini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** shu bilan tasdiqlanadiki, foydalanilgan statistik ma'lumotlar rasmiy, ilmiy va o'quv-metodik nashrlarda e'lon qilingan hamda vakolatli organlar tomonidan ma'qullangan. Tadqiqot natijalari ilmiy maqolalar nashr etish orqali aprobatsiyadan o'tkazildi va aholi o'rtasida ijtimoiy tarmoqlar orqali o'tkazilgan sotsiologik so'rovnomalar (*550 dan ortiq respondent*) ma'lumotlari bilan tasdiqlandi. Ishning xulosalari, takliflari va tavsiyalari aprobatsiyadan o'tdi, ularning natijalari yetakchi mahalliy va xorijiy nashrlarda, xalqaro hamda respublika seminarlari va konferensiyalari to'plamlarida e'lon qilindi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalari ilmiy-tadqiqot faoliyatida, “Inson huquqlari”, “Konstitutsiyaviy huquq”, “Ma’muriy huquq” kabi o‘quv kurslarini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishda qo‘llanilishi mumkin. Dissertatsiyaning nazariy jihatlari ma’muriy adliya orqali inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirishga yordam beradi, ushbu mavzu bo‘yicha yangi ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish imkonini yaratadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, tadqiqot natijasida shakllantirilgan ilmiy qoidalar, xulosalar va tavsiyalar davlat organlari va sud organlari faoliyati samaradorligini oshirishda, shuningdek, inson huquqlari sohasidagi norma ijodkorligida, huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishda foydalanilishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ilmiy tadqiqot natijalariga ko‘ra, ma’muriy adliya sohasidagi milliy qonunchilikni takomillashtirish maqsadida qonun ijodkorligi jarayonida joriy etilgan takliflar ishlab chiqildi:

1. Qozog‘iston Respublikasining Ma’muriy tartib-taomillar kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish:

- Qozog‘iston Respublikasi MTTKning 16-moddasiga “Sudning faol roli” bo‘yicha quyidagi mazmundagi taklif ilgari surildi: *“Ma’muriy sud ishlarini yuritish sudning faol roli asosida amalga oshiriladi. Sud o‘z tashabbusi yoki ma’muriy protsess ishtirokchilarining asoslantirilgan iltimosnomasiga ko‘ra materiallar va dalillarni to‘playdi”*;

- Qozog‘iston Respublikasi MTTKning 91-moddasiga “Shikoyat qilish tartibi” bo‘yicha quyidagi mazmundagi taklif ilgari surildi: *“5-qism - agar qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, sudga murojaat qilishga sudgacha bo‘lgan tartibda shikoyat qilinganidan keyingina yo‘l qo‘yiladi”*;

- Qozog‘iston Respublikasi MTTKning 102-moddasiga “Ishlarning sudlovga tegishliligi” bo‘yicha quyidagi mazmundagi taklif ilgari surildi: *“Ma’muriy sud ishlarini yuritish tartibida sudlarga ushbu Kodeksda nazarda tutilgan ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar tegishlidir”*;

- Qozog‘iston Respublikasi MTTKning 120-moddasiga “Yarashtiruv tartib-taomillari” bo‘yicha quyidagi mazmundagi taklif ilgari surildi: *“Tomonlar o‘zaro yon berish asosida yarashuv bitimini tuzish yo‘li bilan ma’muriy ishni to‘liq yoki qisman tugatishlari mumkin”*;

- Qozog‘iston Respublikasi MTTKning 129-moddasiga “Isbotlash majburiyati” bo‘yicha quyidagi mazmundagi taklif ilgari surildi: *“Isbotlash yuki quyidagilarga yuklatiladi: 1) nizolashish to‘g‘risidagi da‘vo bo‘yicha – og‘irlashtiruvchi ma’muriy akti qabul qilgan javobgar; 2) majburlash to‘g‘risidagi da‘vo bo‘yicha – so‘ralayotgan ma’muriy akti qabul qilishni rad etishga asos bo‘lgan faktlar qismida javobgar”*;

- Qozog‘iston Respublikasi MTTKning 25-bobini quyidagi mazmunda nomlash taklifi ilgari surildi: *“Fuqarolar va saylovda, respublika referendumida ishtirok etuvchi jamoat birlashmalarining saylov huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi ma’muriy ishlar bo‘yicha ish yuritish”*.

Yuqoridagi takliflar loyihani ko‘rib chiqish jarayonida inobatga olindi va Qozog‘iston Respublikasi Ma’muriy tartib-taomillar kodeksi matnida qabul qilindi (Qozog‘iston Respublikasi Parlamenti Majlisining 2024-yil 28-avgustdagi №034-

16/2024 sonli; Qozog‘iston Respublikasi Oliy sudining 2024-yil 21-avgustdagi №JT-046231 sonli; Qozog‘iston Respublikasi Adliya vazirligining 2024-yil 19-avgustdagi №1-3-7/6960-4 sonli dalolatnomalari). Dissertant ishchi guruhi tarkibida Kodeks loyihasini ishlab chiqishda bevosita ishtirok etgan.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 27-fevraldagi “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-915-sonli Qonuniga:

- “O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risida”gi kodeksining 297-moddasi “Advokat” bo‘yicha quyidagi mazmundagi taklif berildi: *“Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatayotgan advokatni jalb qilishda advokatning ishda ishtirok etishi tasdiqlangan paytdan e‘tiboran unga ishga kirishish uchun kamida to‘rt soat vaqt berilishi kerak”*;

- “O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risida”gi kodeksining 60-moddasi “Shartnoma bo‘yicha (ixtiyoriy) vakillik” bo‘yicha quyidagi mazmunda taklif berildi: *“Sud davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatayotgan advokat jalb qilingunga qadar ishni ko‘rishni keyinga qoldiradi, advokatning ishda ishtirok etishi tasdiqlangan paytdan e‘tiboran unga ishga kirishish uchun kamida to‘rt soat vaqt berilishi kerak”*.

- O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksining 11-moddasi “Sudning faol ishtiroki” bo‘yicha quyidagi mazmundagi taklif berildi: *“Ma‘muriy sud ishlarini yuritish sudning faol ishtiroki asosida amalga oshiriladi. Sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlari, arizalari, iltimosnomalari, ular tomonidan taqdim etilgan dalillar va ishning boshqa materiallari bilan cheklanmasdan ma‘muriy ishning to‘g‘ri hal qilinishi uchun ahamiyatga ega bo‘lgan barcha haqiqiy holatlarni har tomonlama, to‘liq va xolisona tekshiradi”*.

Ushbu takliflar O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 26-apreldagi “Davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini samarali himoya qilishni ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar qabul qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-833-sonli Qonuni matnida inobatga olindi va qabul qilindi (*O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2024-yil 17-avgustdagi №0216-06-61-sonli dalolatnomasi*).

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya tadqiqotining asosiy xulosalari va qoidalari 5 ta xalqaro va respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, seminarlar va davra suhbatlarida aprobatsiyadan o‘tkazildi. Dissertantning tegishli tavsiyalari va takliflari Qozog‘iston Respublikasi Ma‘muriy tartib-taomillar kodeksi moddalari qoidalarini ishlab chiqishda inobatga olindi.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ish nashr etilgan, jumladan, OAK tomonidan ro‘yxatga olingan milliy jurnallarda – 4 ta, xalqaro jurnallarda – 2 ta, ilmiy anjuman to‘plamlarida –5 ta maqola va tezis chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 154 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlariga muvofiqligi, tadqiqot muammosining oʻrganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ish rejalari bilan bogʻliqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi, tadqiqotning amaliy natijalari, ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, aprotatsiyasi, natijalarning eʼlon qilinishi, shuningdek, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi ochib berilgan.

Dissertatsiyaning **“Inson huquqlari konsepsiyasi va maʼmuriy adliya instituti”** deb nomlangan birinchi bobida inson huquqlari konsepsiyasining ilmiy-nazariy asoslari, siyosiy-huquqiy fikr tarixida inson huquqlarining evolyutsiyasi ochib berilgan, inson huquqlarini himoya qilishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari va usullari, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish vositasi sifatida maʼmuriy adliya institutining nazariy asoslari tahlil qilingan.

Dissertatsiyada qayd etilishicha, inson qadr-qimmatini, fuqarolar huquqlarini himoya qilish usullari haqidagi qarashlar va gʻoyalar turli sivilizatsiyalarda, jumladan Markaziy Osiyo mintaqasida ham rivojlangan. Gʻarbning inson huquqlari konsepsiyasidan farqli oʻlaroq, unda individga ustunlik berilsa, inson qadr-qimmatini sharqona tushunishda, aksincha, kollektivistik tamoyillar doimo belgilovchi boʻlgan, individual huquqlarning taʼminlanganligi va toʻliqligi kollektiv huquqlarning taʼminlanganligi va toʻliqligi darajasiga bogʻliq boʻlgan. Shu bilan birga, zamonaviy jamiyatda individual va kollektiv huquqlar oʻzaro chambarchas bogʻliq va bir-biriga mutanosibdir, shuning uchun ular bir-biriga zid kelmasligi kerak<sup>1</sup>.

Taʼkidlash joizki, maʼmuriy adliya tizimida adolatli sud muhokamasi huquqi inson huquqlari boʻyicha xalqaro va mintaqaviy shartnomalardan xususan, Fuqaroviy va siyosiy huquqlar toʻgʻrisidagi xalqaro paktning 14-moddasi, Inson huquqlari va asosiy erkinliklarni himoya qilish boʻyicha Yevropa konvensiyasining 6-moddasi, Inson huquqlari boʻyicha Amerika konvensiyasining 8-moddasi, Inson va xalqlar huquqlari boʻyicha Afrika xartiyasining 7-moddasidan bevosita kelib chiqadi. Bundan tashqari, YXHTning maʼmuriy adliya sohasiga oid asosiy majburiyatlari 1990-yilgi Kopengagen hujjatida va YXHTning boshqa hujjatlarida oʻz aksini topgan.

Qozogʻiston va Oʻzbekistonda ijro hokimiyati sohasida fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishning turli usullari mavjud. Ishda taʼkidlanishicha, davlat organlari faoliyatida inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishi ustidan sud nazorati doirasida maʼmuriy adliya instituti alohida ajralib turadi. Yuridik fanda huquqiy tizimlarning anglosakson va kontinental boʻlinishiga mos keluvchi maʼmuriy adliyaning ikki asosiy tizimini ajratish qabul qilingan.

Birinchi tizim maxsus tashkil etilgan maʼmuriy sudlarning yoʻqligi bilan tavsiflanadi (*Buyuk Britaniya, AQSH, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Hindiston, Kanada*). Biroq bu ayrim mamlakatlarda (*masalan, Buyuk Britaniya, AQSH,*

---

<sup>1</sup> *Qarang:* Тиллабаев М.А. Национальные институты по правам человека: международная, зарубежная и национальная практика. / Отв. ред. А.Х.Саидов. – Т.: Адолат, 2008. – С.15-16.

*Avstraliya, Yangi Zelandiya*) boshqa ma'muriy yurisdiksiya muassasalarining, masalan, ma'muriy tribunallarning mavjudligini inkor etmaydi. Ular o'z mohiyati, vakolatlari va tashkil etilish tartibiga ko'ra de-fakto ma'muriy sudlar hisoblanadi, lekin de-yure sud tizimiga kirmaydi.

Ikkinchi tizim esa, aksincha, ma'muriy sudlarning (*Fransiya, Germaniya, Italiya, Avstriya, Lyuksemburg, Finlyandiya, Shvetsiya, Gretsiya, Ispaniya, Portugaliya, Bolgariya, Polsha, Chexiya va boshqalarda*) yoki oddiy sud organlari doirasida ma'muriy ishlar bo'yicha palatalarning (*Shveysariya, Ruminiya, Latviya, Iroq, Xitoyda*) faoliyat ko'rsatishini nazarda tutadi. Bunday bo'linish tarixiy jihatdan, birinchi holatda ma'muriyat faoliyati ustidan alohida rivojlangan ichki nazoratning mavjudligi va ikkinchi holatda esa aynan sud organlarining katta ahamiyatga egaligi sababli shakllangan.

Bundan tashqari, fanda ma'muriy adliya tushunchasi va mazmuni masalasi bo'yicha davom etayotgan munozara munosabati bilan dissertatsiya muallifi tomonidan mavjud ilmiy xulosalar, inson huquqlarini himoya qilishda ma'muriy adliya institutidan faol foydalanayotgan mamlakatlarda ushbu institut faoliyatining samaradorligi to'g'risidagi nuqtayi nazarlar, Qozog'iston va O'zbekistonning huquqiy tizimlarida ma'muriy adliyaning o'rni va roli umumlashtirilgan va tanqidiy jihatdan anglab yetilgan. Ushbu muhim huquqni himoya qilish institutini joriy etish bo'yicha tor va keng yondashuvlarga ta'rif berilgan.

Muallif inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha ushbu institutni kengroq joriy etish tarafdori bo'lgan huquqshunoslarning nuqtayi nazarini qo'llab-quvvatlab, uning asosliliigi va samaradorligi bo'yicha qo'shimcha dalillar keltiradi va o'z tadqiqotida undan asos sifatida foydalanadi. Xususan, an'anaviy yondashuv doirasida ma'muriy adliya quyidagi umumiy xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

1. Ommaviy huquq bo'yicha huquqiy nizoning (ma'muriy-huquqiy, boshqaruv nizosi) mavjudligi: ma'muriy-huquqiy nizo davlat organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, mansabdor shaxslar (bir tomondan) va boshqa huquq subyektlari (ikkinchi tomondan) o'rtasida jismoniy yoki yuridik shaxslarning subyektiv ommaviy huquqlari buzilishi munosabati bilan yuzaga kelgan yuridik konflikt yoki yuridik kolliziya sifatida tushuniladi.

2. Ma'muriy adliya organlari ideal holatda ham boshqa hokimiyat tarmoqlaridan (boshqaruvning boshqa organlaridan), ham umumiy yurisdiksiya sudlaridan mustaqil bo'lishi kerak; ular, shuningdek, ijro hokimiyati ustidan tashqi nazoratni, ya'ni boshqaruv organlari va ularning mansabdor shaxslari faoliyati ustidan sud nazoratini amalga oshiradilar; ko'pincha bu organlar kvazisud organlari deb ataladi, chunki ularning faoliyati an'anaviy fuqarolik protsessi doirasida ishlarni ko'rib chiquvchi umumiy sudlar faoliyatidan farq qiladi.

3. Ma'muriy adliyaga maxsus "ma'muriy-adliya" huquqiy munosabat subyektlarining (fuqarolar, ommaviy boshqaruv organlari, ijro hokimiyati subyektlari, mansabdor shaxslar); boshqaruv sohasidagi ommaviy-huquqiy nizolarni ko'rib chiquvchi mansabdor shaxslarning (sudyalar) mavjudligi xosdir.

Dissertatsiyaning "**Qozog'iston Respublikasida ma'muriy adliya orqali inson huquqlarini himoya qilish**" deb nomlangan ikkinchi bobida Qozog'istonda ma'muriy adliya vositasida inson huquqlarini himoya qilishning shakllanish tarixi va

huquqiy asoslari ochib berilgan, ma'muriy adliya institutining faoliyati tahlil qilingan.

Dissertant zamonaviy Qozog'iston sud-huquq tizimining qiyofasi yangi tarix tekisligida shakllanganini qayd etadi: u ko'p jihatdan o'zlashtirilgan, jahon huquq tizimiga integratsiyalashgan. Ammo qozoq xalqi tarixida o'rta asrlar davlatchiligi tarixida bir necha asrlar davomida o'zining mohiyati va maqsadiga ko'ra noyob bo'lgan qadimgi qozoq huquqi shakllangan va amalda qo'llangan davrlar ham bo'lgan. Biylar sudi institutining Qozog'iston jamiyati davlatchiligi va huquqiy madaniyatini shakllantirishdagi ahamiyatini inkor etib bo'lmaydi. Buyuk qozoq biylari boy ma'naviy meros qoldirdilar va ular faoliyatining asosiy tamoyili adolat tamoyili bo'lib, u bugungi kunga qadar o'z dolzarbligini yo'qotmagan<sup>1</sup>.

Qozog'istonlik olimlarning (M.I. Jumagulov, B.A. Jetpisbayev, K.A. Mami, E.A. Nugmanova, R.A. Podoprighora va boshqalar) asarlarida ta'kidlanishicha, uzoq vaqt davomida ma'muriy adliyani mustaqil huquqiy institut sifatida yaratish yo'lida tub o'zgarishlar kuzatilmagan. Qozog'istonda ma'muriy huquqi fanida ma'muriy-ommaviy huquqning alohida instituti sifatida ma'muriy adliya muammolari bo'yicha maxsus tadqiqotlar o'tkazilmagan. Qozog'istonda ommaviy-huquqiy nizolar Fuqarolik protsessual kodeksi (QR FPK) qoidalari bo'yicha ko'rib chiqilgan, bu esa ma'muriy adliya prinsiplariga mos kelmagan. 2010-yilda Qozog'iston Respublikasining Ma'muriy protsessual kodeksi (QR MPK) loyahasini ishlab chiqishga urinish bo'lgan, unda ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar bo'yicha ishlar birinchi instansiya sudi sifatida ma'muriy sudlar tomonidan ko'rib chiqilishi nazarda tutilgan.

Qozog'iston Respublikasi Prezidentining 2022-yilgi Qozog'iston xalqiga Murojaatnomasida ta'kidlanishicha, ma'muriy adliyani yaratish "Eshituvchi davlat" konsepsiyasini amalga oshirish doirasida hokimiyat vakillari bilan o'zaro munosabatlarda fuqarolar va yuridik shaxslarning sud orqali himoya qilish kafolatlarini to'liqroq ta'minlash, shuningdek, davlat apparatining intizomini oshirishda prinsipial ahamiyatga ega. 2021-yil 1-iyuldan boshlab Qozog'istonda ma'muriy adliya faoliyat ko'rsatmoqda. Qozog'istonda ma'muriy adliya faoliyatini tahlil qilar ekan, muallif da'volar soni yil sayin o'sib borayotganini ko'rsatuvchi statistik ma'lumotlarni keltiradi. Ma'muriy da'volarning asosiy qismi markaziy davlat organlariga qarshi da'volardir (uy-joy, soliq va yer nizolari). Respublika bo'yicha ma'muriy ishlar soni uch yil davomida barqaror ravishda 60 foizga qanoatlantirilmoqda<sup>2</sup>.

Ma'muriy adliya sohasidagi ishlarning qaysi sudga taalluqliligi va qaysi sudda ko'rilishi masalalari bo'yicha huquqiy tadqiqot B.A. Jetpisbayeva, G.T. Mirazova kabi olimlarning Qozog'iston Respublikasining amaldagi Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi kodeksida (QR MHTK) 1500 dan ortiq huquqbuzarlik tarkiblari mavjudligi haqidagi fikrining dolzarbligini tasdiqladi. Ushbu tarkiblar shaxsga tajovuz qiluvchi, ijtimoiy xavf tug'diruvchi huquqbuzarliklarni ham, yurist olimlarning

---

<sup>1</sup> Qarang: История Верховного суда. Суд биев // <https://sud.gov.kz/rus/content/sud-biev>

<sup>2</sup> Qarang: Сайт Верховного суда Республики Казахстан. Аналитика. 2024 г. // <https://sud.gov.kz/rus/content/appk-v-deystvii>

fikricha, QR MPK sohasida bo'lishi kerak bo'lgan normalarni ham o'z ichiga oladi<sup>1</sup>. Shu munosabat bilan muallif ma'muriy huquqbuzarliklar tarkiblarini deliktlar bilan bog'liq huquqbuzarliklarga va ma'muriy tartib-qoidalarni buzish bilan bog'liq huquqbuzarliklarga ajratish muhimligi haqidagi fikrga keladi.

Bundan tashqari, ma'muriy adliya nafaqat fuqaroning da'vosi bo'yicha ma'muriy nizolarni, balki davlat tomonidan qo'zg'atilgan nizolarni ham hal qilishga qaratilgan. A.B. Zelentsov haqli ravishda ta'kidlaganidek, nizolarning asosiy qismi xususiy shaxslar tomonidan qo'zg'atiladi, ammo ma'muriy nizo ommaviy hokimiyat organi tomonidan qo'zg'atilgan holatlarni ham istisno qilib bo'lmaydi<sup>2</sup>.

Davlat organlari o'rtasida yuzaga kelgan nizolarning qaysi sudga taalluqliligi masalasi bo'yicha ilmiy munozara munosabati bilan Qozog'iston Respublikasi Adliya vazirligining sud tizimini isloh qilish bo'yicha 24 ta qadam doirasida kiritilgan yuqorida ko'rsatilgan nizolarni hal qiluvchi "hukumat arbitraji" institutini joriy etish bo'yicha takliflarini qo'llab-quvvatlaymiz. Statistika ko'ra, davlat organlari o'zaro sudlashayotgan minglab ishlar kelib tushmoqda.

Shunday qilib, dissertatsiyaning ikkinchi bobi ustidagi ish yakunlariga ko'ra, muallif tomonidan quyidagi xulosalar qilindi:

*Birinchidan*, mavjud muammolarga qaramay, Qozog'istonda ma'muriy adliya vositasida inson huquqlarini himoya qilish qozog'istonliklarning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilishning muhim tarkibiy qismidir. QR MPKning asosiy vazifasi davlat boshqaruvi darajasini oshirish, shuningdek, sud amaliyotining barqarorligini ta'minlashdir;

*Ikkinchidan*, davlat organlarining ma'muriy tartib-qoidalarni shaffof tarzda o'tkazish tartibiga, shuningdek, ma'muriy nizoni sudgacha hal qilish tartibini kuchaytirishga nisbatan rasmiy yondashuvdan voz kechishga e'tibor qaratilishi lozim;

*Uchinchidan*, inson huquqlarini himoya qilish samaradorligini oshirish imkonini beruvchi davlat organlari bilan fuqarolik-huquqiy nizolarning keng doirasini QR MPKga tekisligiga o'tkazish orqali ma'muriy adliya sohasini kengaytirish zarur;

*To'rtinchidan*, xalqaro tajribadan foydalangan holda davlat organlari o'rtasidagi huquqiy nizolarni tezroq hal qilish imkonini beruvchi "hukumat arbitraji" institutini joriy etish zarur;

*Beshinchidan*, QR MHTK moddalarini ajratish va tegishli normalarni QR MPK predmetiga kiritish yondashuvini kengaytirish zarur. Amaldagi QR MHTK dan ommaviy-huquqiy xususiyatga ega bo'lgan tarkiblarni QR MPKga o'tkazish lozim.

Dissertatsiyaning **"O'zbekiston Respublikasida ma'muriy adliya orqali inson huquqlarini himoya qilish"** deb nomlangan uchinchi bobida O'zbekistonda ma'muriy adliya institutining shakllanishi, rivojlanishi va faoliyati kompleks tahlil qilingan, shuningdek, Qozog'iston va O'zbekistonda ma'muriy adliya faoliyatining qiyosiy-huquqiy tahlili o'tkazilgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, ma'muriy adliya vositasida inson huquqlarini himoya qilishning ilk ko'rinishlari, aniqrog'i, o'zbek davlatchiligi tarixida muhtasib

<sup>1</sup> Жетписбаев Б.А., Миразов Г.Т. Административная юстиция: проблемы теоретико-методологического моделирования // Вестник КазНУ. Серия юридическая. – Том 82. – №25 (2017). – С. 35.

<sup>2</sup> Зеленцов А.Б. Административная юстиция. Общая часть. /Теория судебного административного права: учеб. пособие для студ. вузов, обучающихся по специальности «Юриспруденция». – М., 2015. – С. 173-174.

institutining vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanish tarixi Abul Fazl Bayhaqiy<sup>1</sup>, Shizari Abdurahmon Nasr<sup>2</sup> va boshqalarning asarlarida bayon etilgan. Xususan, Muhtasib (arab. *muhtasib*) – ma’qullangan ishlarni buyurish va qoralangan ishlarni taqiqlashdan iborat bo’lgan islom axloqiy meyorlarining hayotga tatbiq etilishini kuzatib boruvchi maxsus tashkilot xodimi<sup>3</sup>.

O‘zbek davlatchiligi tarixida muhim iz qoldirgan sulolalar (Somoniyalar, G‘aznaviyalar va Temuriylar davlati) davrida muhtasib institutining vakolatlari kengayib, u shariat meyorlariga muvofiq sud muhokamalarining o‘tkazilishi ustidan bevosita nazoratni amalga oshirgan. Xususan, professor G.R.Malikova<sup>4</sup> ta’kidlashicha, bu institut payg‘ambar Muhammad (SAV) davrida sodir bo’lgan voqea natijasida tashkil topgan. Dissertant ta’kidlashicha, jamiyat a’zolarining ma’naviy va diniy burchlarini kuzatib boruvchi muhtasiblarga alohida talablar qo‘yilgan va ular yuqori darajadagi adolatlilikka ega bo‘lishlari kerak bo‘lgan.

Akademik B. Ahmedovning fikricha<sup>5</sup>, Amir Temur davlatida muhtasib lavozimi joriy etilgan bo‘lib, ular diniy marosimlar, urf-odatlar va shariat qonunlariga rioya qilishda alohida mavqega ega bo‘lgan (fuqarolarning shariat qonunlari asosidagi murojaatlarini adolatli hal etish). O‘sha davrda muhtasibning mavqeyini prokurorga qiyoslash mumkin, chunki u nazorat funksiyasini bajargan. Shu bilan birga, bir qator tadqiqotchilar Muhtasib lavozimi Ombudsman institutining ham ildizi bo‘lganligini ta’kidlaydilar<sup>6</sup>.

Dissertatsiyada O‘zbekistonda ma’muriy adliyaning shakllanish tarixi ochib berilgan. Xususan, 1991–2000 yillarda sud tizimining qonunchilik asoslari qabul qilinib, ma’muriy adliyaning poydevori yaratildi. Bunga sud orqali himoya qilish qafolatlari to‘g‘risidagi konstitutsiyaviy norma; “Fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzuvchi harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to‘g‘risida”gi, “Fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risida”gi qonunlar va Fuqarolik protsessual kodeksi (keyingi o‘rinlarda – FPK) dalil bo‘ladi, ular davlat organlarining noqonuniy qarorlari ustidan shikoyat qilish tartibini tartibga solgan. Bir qator olimlarning fikricha, ushbu normalar va o‘sha davrda qabul qilingan qonunlar ma’muriy adliyaning asosini tashkil etgan.

Ma’muriy nizolar asosan FPK doirasida davlat organlarining, shuningdek, mansabdor shaxslarning qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat va

---

<sup>1</sup> *Qarang*: Абул Фазл Байҳақи. «История Масъуда». Перевод с Персидского. Издание 2-е (дополненное). – М.: Наука, 1969. – С.107.

<sup>2</sup> *Qarang*: Шизари Абдурахмон Наср. Китоб нихоят ал-рутба фи талаб ал-хисба. – Кохира, 1365х/1936. – С. 9-10.

<sup>3</sup> Жузжоний А.Ш. Исломда омбудсман институти // Дунё омбудсманлари. Тўплам. /Масъул муҳаррир С.Ш.Рашидова. – Т., 2000. – Б.12-14.

<sup>4</sup> Маликова Г.Р. Генезис прокуратуры Республики Узбекистан: «Восток – дело тонкое» // Журнал зарубежного законодательства и сравнительного правоведения. – 2020. – № 4. – С. 80.

<sup>5</sup> *Qarang*: Зокиров Ш.И. Становление и развитие института мухтасиб в истории средневековой государственности. // Журнал «Журнал юридических исследований». – Том 5. – №4. – 2020. – С. 3.; Ахмедов Б. Уроки Амира Темура: Пособие для учителей и учащихся общеобразовательных и специальных исторических школ. – Т.: «Восток», 2001. – 144 с.

<sup>6</sup> *Qarang*: Гасанли АзерАбдул-Али оглы. Мухтасибская институциональная система как версия совершенной организации правозащитной системы омбудсманского рода // Политика и общество. – 2009. – №1. – С. 54; Тиллабаев М.А. Национальные институты по правам человека: международная, зарубежная и национальная практика. / Отв. ред. А.Х.Саидов. – Т.: Адолат, 2008. – С.34-35.

arizalar bo'yicha ish yuritish haqidagi bo'limga muvofiq ko'rib chiqilgan. Mazkur toifadagi ishlar sudlar tomonidan fuqarolik sud ishlarini yuritishning umumiy qoidalari bo'yicha ko'rilgan. Shunday qilib, Markaziy Osiyo hududida faqat O'zbekiston Konstitutsiyasida ma'muriy adliyaning moddiy-huquqiy asoslari bevosita belgilangan edi.

2018-yilda O'zbekistonda "nemis modeli"dagi ma'muriy adliya bo'yicha ommaviy-huquqiy nizolar yuzasidan ma'muriy sudlar faoliyat boshladi, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi kuchga kirdi, "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Fanda ommaviy-huquqiy nizolarning sudga taalluqliligi mavzusida davom etayotgan munozaralar munosabati bilan doktrinada bu boradagi mavjud nuqtayi nazarlar umumlashtirildi va tanqidiy tahlil qilindi. Misol uchun, hokimlarning qarorlari asosidagi yer uchastkalariga oid ishlar ma'muriy sudlarda ko'rib chiqiladi. Ammo, agar FPK normasidan kelib chiqilsa, yer huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolar fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar tomonidan ko'rilishi mumkin. Bu borada J.N. Ne'matov ta'kidlashicha, ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishlarning sudga taalluqliligini aniqlash masalasiga oid qoidalarning tegishli talqinlarini ishlab chiqish, xususan fuqarolik ishlari bo'yicha sudlardan farqlash borasida nazariya va sud amaliyoti orqada qolmoqda<sup>1</sup>.

Qozog'iston va O'zbekistonda ma'muriy adliyaning faoliyat ko'rsatishini qiyosiy tahlil qilish sudlarning ish yuklamasini kamaytirishga, shuningdek, fuqarolar va davlat organlari, mansabdor shaxslar o'rtasidagi nizolarni tezkor va jadallashtirilgan tarzda hal etishga qaratilgan sudgacha bo'lgan ma'muriy ish yuritishni takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Bir qator ekspertlarning fikricha<sup>2</sup>, ommaviy-huquqiy nizolar hamon eng murakkab toifadagi ishlardan biri bo'lib qolmoqda va ular sud amaliyotida yetakchi o'rinlarni egallab turibdi.

Nizolarni sudgacha hal qilishning muqobil shakllari sud tartibidagi tegishli ko'rib chiqishlar sonini kamaytirishga, shuningdek, odil sudlovga erishishni ta'minlash bo'yicha qonunchilikni yanada modernizatsiya qilishga qodir. Xususan, O'zbekistonda eksperiment tariqasida Adliya vazirligi, Bojxona qo'mitasi, Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi, shuningdek, bir qator viloyatlar hokimliklari huzurida nizolarni sudgacha hal qilish bo'yicha Apellyatsiya kengashlari tashkil etildi<sup>3</sup>.

Shu munosabat bilan, professor I.A. Xamedov ta'kidlashicha, sudgacha bo'lgan ma'muriy adliya islohoti xalq qabulxonalariga boshqacha nazar bilan qarashga imkon

---

<sup>1</sup> *Qarang:* Нематов Ж.Н. Основные направления административных реформ в Республике Узбекистан: основные проблемы и пути по совершенствованию административного законодательства. //Институт государства и права Академии наук Республики Узбекистан. – Ташкент, 2020 – С. 23.

<sup>2</sup> *Qarang:* Досанова Ф.П. Альтернативные формы досудебного урегулирования споров, вытекающих из публичных правоотношений: зарубежный опыт и перспективы использования в Республике Казахстан. // Научно-правовой журнал «Вестник Института законодательства и правовой информации Республики Казахстан». – №5 (54). – 2018. – С. 167.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-iyundagi "Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4754-son Qarori; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi "Ma'muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas'uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to'g'risida"gi PF-80-son Farmoni.

beradi. Ularni ma'muriy shikoyatlarni ko'rib chiqish uchun tashkil etiladigan yangi yurisdiksiya organlarining "front-ofislari"ga aylantirish mumkin<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasi ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish konsepsiyasining tahlili<sup>2</sup> O'zbekistonda bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarning muhimligini ko'rsatadi:

*birinchidan*, xalqaro standartlarga va ma'muriy sud ishlarini yuritishning ilg'or xorijiy tajribasiga muvofiq ravishda ommaviy huquqiy munosabatlar sohasida fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini ta'minlashda o'zini oqlagan yangi institutlar va tartib-taomillarni joriy etish bo'yicha ishlarni davom ettirish;

*ikkinchidan*, ommaviy huquqiy munosabatlarning mohiyatini aks ettiruvchi ma'muriy sud ishlarini yuritish prinsiplarini to'liq amalga oshirish, shu jumladan sudning faol ishtiroki prinsipining qo'llanish doirasini kengaytirish;

*uchinchidan*, ma'muriy sud ishlarini yuritishda da'vo institutini joriy etish, ma'muriy organlarga nisbatan qo'zg'atiladigan da'vo turlarini aniq belgilash va har bir da'vo turi uchun aniq protsessual qoidalarni o'rnatish;

*to'rtinchidan*, ma'muriy sud ishlarini yuritishda nizolarni sudgacha hal qilish mexanizmlarini yanada kengaytirish.

Shunday qilib, ma'muriy adliya instituti Qozog'iston va O'zbekistonda huquqni himoya qilish mexanizmlarining muhim tarkibiy qismiga aylandi, bu mamlakatlar fuqarolarining konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilish samaradorligini oshirishga va davlat boshqaruvi darajasi va sifatini yaxshilashga, byurokratizm, sansalorlik, davlat organlarining ma'muriy tartib-taomillarni o'tkazish tartibiga rasmiy yondashuvidan bosqichma-bosqich uzoqlashishga va ma'muriy ishlar bo'yicha sud amaliyotini yaxshilashga xizmat qildi.

## XULOSA

Xalqaro standartlar, milliy va xorijiy qonunchilikda ma'muriy adliya orqali inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

### I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

1. Qiyosiy-huquqiy tahlil natijalariga ko'ra shuni ta'kidlash mumkinki, Qozog'iston va O'zbekistonda ma'muriy adliya orqali inson huquqlarini himoya qilish inson huquqlarini va davlat boshqaruvi sohasidagi huquqlarni himoya qilishning nihoyatda muhim vositasi hisoblanadi.

O'rganish asosida muallifning quyidagi ta'rifi shakllantirildi:

*"Ma'muriy adliya – demokratik huquqiy davlatning instituti bo'lib, u maxsus protsessual qoidalar doirasida davlat boshqaruvi sohasida qonuniylikni nazorat qilish va bir tomondan, jismoniy va yuridik shaxslar, ikkinchi tomondan, davlat organlari yoki ularning mansabdor shaxslari o'rtasidagi huquqiy nizolarni hal etish*

